

ARAB TILIDA SO'ROQ OLMOShLARI

Asqarova Diyora Mirvohid qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Sharq filologiyasi fakulteti

Arab tili yo'naliishi 1-bosqich talabasi

diyoraasqarova191@gmail.com

Umurzakova Oygul Umarovna

Ilmiy rahbar: O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi

va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotation. Ushbu maqolada arab tilidagi so'roq olmoshlari (أدوات الاستفهام) ning grammatik funksiyalari, turlari va ularning gapdagi o'rni tahlil qilingan. So'roq olmoshlari gapda savolni ifodalashda muhim rol o'ynaydi va ular so'roq, aniqlik kiritish, hamda izoh berish vazifalarini bajaradi. Tadqiqotda so'roq olmoshlarining turli shakllari va ularning arab tilidagi qo'llanilishi o'rganilgan.

Kalit so'zlar va iboralar: arab tili, so'roq olmoshlari, umumiy so'roq gap, maxsus so'roq gap, alternativ so'roq gap.

Аннотация. В данной статье анализируются грамматические функции, виды и место вопросительных местоимений (أدوات الاستفهام) в арабском языке. Вопросительные местоимения играют важную роль в выражении вопросов в предложении, выполняя функции запроса, уточнения и объяснения. В исследовании рассмотрены различные формы вопросительных местоимений и их использование в арабском языке.

Ключевые слова и фразы: арабский язык, вопросительные местоимения, общий вопрос, специальный вопрос, альтернативный вопрос.

Annotation. This article analyzes the grammatical functions, types, and position of interrogative pronouns (أدوات الاستفهام) in the Arabic language. Interrogative pronouns play an important role in expressing questions in sentences, performing functions of inquiry, clarification, and explanation. The study examines the different forms of interrogative pronouns and their usage in Arabic.

Keywords and phrases: Arabic language, interrogative pronouns, general question, special question, alternative question.

So'roq olmoshlari arab tilining muhim grammatik elementlaridan biridir. Arab tilida so'roq olmoshlar "adavatul istifham" (أدوات الاستفهام) deyiladi. Ular gapning ma'nosini o'zgartirish, savolni ifodalash va ma'lumot so'rashda ishlatalidi. So'roq olmoshlari, odatda, gapda alohida o'rin egallaydi va sintaktik tuzilishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada so'roq olmoshlari va ularning grammatik xususiyatlari, turlari hamda ularning gapdagi o'rni tahlil qilinadi.

So‘roq olmoshlari va ularning turlari

Tarkibidagi so‘roqning ma’nosiga qarab, so‘roq gap uchga bo‘linadi:

1. Umumiy so‘roq gap. “Ha” va “yo‘q” so‘zлari javob bo‘la oladigan so‘roq gap umumiy so‘roq gapdir. Umumiy so‘roq gapning boshiga “هُنْ...مِيْ?” yoki “أَوْ...مِيْ?” yuklamalari yordamida yasaladi. Misol:

Sen talabamisan? – هلْ أَنْتَ طَالِبٌ؟ أَنْتَ طَالِبٌ؟
U o’qituvchimi (mn)? – أَهِيَ مُعْلِمَةٌ؟ هُنْ هِيَ مُعْلِمَةٌ؟
Bu qalammi? – أَهَدَا قَلْمَنْ؟ هُنْ هَذَا قَلْمَنْ؟

Ba’zan umumiy so‘roq gap so‘roq yuklamalarisiz, ohang vositasida ifodalanadi.

Misol:

U o’quvchi. – هُوَ تَلْمِيْدٌ.
U o’quvchimi? – هُوَ تَلْمِيْدٌ؟

2. Maxsus so‘roq gap. Muayyan so‘roq olmoshlari yordamida yasaladigan va to‘la javob talab qiladigan so‘roq gaplar maxsus so‘roq gaplardir. Bunday so‘roq gaplar ushbu so‘roq so‘zлari bilan ifodalanadi:

O‘qil (odam) haqida so‘rash uchun: kim? “مَنْ؟”
Darsda kim yo’q? – مَنْ غَائِبٌ فِي الدَّرْسِ؟

G‘oyriqil (odamdan boshqa) haqida so‘rash uchun: nima? “مَا؟”
Isming nima? – مَا اسْمُكَ؟

Zamon haqida so‘rash uchun: qachon? “مَئِيْ؟”
Qishki ta’til qachon? – مَئِيْ الْعُطْلَةُ الشَّتُّوَيْهُ؟

Makon haqida so‘rash uchun: qayerda? “أَيْنَ؟”
Otang qayerda? – أَيْنَ أَبُوكِ؟

Holat haqida so‘rash uchun: qanday? “كَيْفَ؟”
Qalaysan? – كَيْفَ حَالَكَ؟

Bu so‘roq olmoshlaring oldiga turli old ko‘makchilar qo‘yilib, yangi ma’nodagi so‘roq so‘zлар hosil bo‘lishi mumkin.

ل + ما (ماذا) = لِمَادَا؟
ل + من = لِمَنْ؟
من + من = مِمَنْ؟
من + ما = مِمَّا؟
عن + ما = عَمَّا؟
ب + كم = بِكْمَ؟
إلى + اين = إِلَى أَيْنَ؟
من + اين = مِنْ أَيْنَ؟
إلى + حتى = إِلَى حَتَّى؟

So‘roq olmoshlari ichida “أَيْ” va “كم” olmoshlari o‘ziga xos xarakterga ega:

➤ “أَيْ” so‘roq olmoshi qaysi so‘z bilan birikkan bo‘lsa, o‘sha so‘z bilan jinsda moslashadi: mz – أَيْهُ, mn – أَيْهَهُ . Shuningdek o‘zi birikkan so‘z bilan izofa hosil qiladi va bunda “أَيْ” so‘zi muzof, birikkan so‘z esa noaniq holda, birlikda muzof ilayhi bo‘lib keladi. Misol:

Qaysi kitob? – أَيْ كِتَابٌ؟
Qaysi jurnal? – أَيْهَهُ مَجَلَّهٌ؟

Ko‘plik yoki ikkilik sonda bo‘lsa, aniq holatda keladi:

أَيُّ الطَّرِيقَيْنِ أَفْضَلُ؟ – *Qaysi yo'l afzal? (Ikki yo'lning qaysinisi afzal?)*

أَيُّ الطُّلَابِ رَاسِبٌ؟ – *Qaysi talaba qoloq? (Talabalarning qaysinisi qoloq?)*

➢ “كُم” so‘roq olmoshi o‘zidan keyingi otni noaniq holda tushum kelishigida kelishiga majbur qiladi. Misol:

كَمْ طَالِيًّا هُنَّا؟ – *Bu yerda qancha talaba bor?*

كَمْ مَجَلَّةً فِي الْمَكْتَبَةِ؟ – *Kutubxonada qancha kitob bor?*

3. Alternativ so‘roq gap. Ikki va undan ortiq predmet yoki fikrdan birini taklif etish ma’nosidagi so‘roq gaplar alternativ so‘roq gaplardir. Bunday so‘roq gaplar “هَلْ” yoki “أَمْ” yuklamasi bilan boshlanadi va taklif qilinayotgan predmet (fikr) o‘rtasiga “أَمْ” yuklamasi qo‘yiladi. Misol:

هَلْ أَنْتَ طَبِيبٌ أَمْ مُهَندِّسٌ؟ – *Siz shifokormisiz yoki muhandissizmi?*

أَهِي فِي الْمَدْرَسَةِ أَمْ فِي الْمَكْتَبَةِ؟ – *U maktabdamni yoki kutubxonadami?*

So‘roq olmoshlarining grammatic funksiyalari

So‘roq olmoshlari gapda sintaktik ro‘l o‘ynaydi. Ular odatda gapni savol shaklida tuzishga yordam beradi va boshqa so‘zlar bilan birga ishlatiladi. So‘roq olmoshlarining ishlatilishi gapning ma’nosini aniqlashtirishda va savolni aniq ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Masalan:

من قرأ الكتاب؟ – *Kim kitobni o‘qidi?*

ماذا فعلت؟ – *Nima qilding?*

So‘roq olmoshlari va ularning semantik vazifalari

So‘roq olmoshlari nafaqat grammatic, balki semantik jihatdan ham muhimdir. Ular gapda qaysi ma’lumot so‘ralayotganini aniqlaydi. So‘roq olmoshlarining ma’nosi gap kontekstiga qarab o‘zgarishi mumkin.

So‘roq olmoshlari arab tilining grammatic tizimida muhim o‘rin tutadi. Ular savollarni aniqlik bilan ifodalashga yordam beradi va gapning semantik tuzilishini boyitadi. Tadqiqot natijalari arab tilini o’rganayotganlar uchun so‘roq olmoshlarining qo‘llanilishi va ularning sintaktik va semantik vazifalarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili grammaticasi. O’quv qo’llanma. – Toshkent, 2019, (82-85 betlar).

2. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammaticasi. Darslik. – Toshkent, 2024, (79-80 betlar).

3. www.arabic.uz